

## O'SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8286244>

**Ortiqov Sirojiddin Sa'dullaevich**

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti*

*"Psixologiya" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

### **Annotatsiya**

Maqolada o'spirinlarda huquqiy ongi rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

### **Kalit so'zlar**

*shaxs, fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, qonun, odob-axloq.*

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ ПОДРОСТКОВ**

### **Аннотация**

В статье исследуются социально-психологические особенности развития правосознания у подростков. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в связи с этим. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

### **Ключевые слова**

*личность, гражданское общество, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, право, этика.*

## **SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF LEGAL CONSCIOUSNESS OF ADOLESCENTS**

### **Annotation**

*The article examines the socio-psychological features of the development of legal consciousness in adolescents. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.*

**Key words**

*personality, civil society, legal awareness, legal culture, legal literacy, law, ethics.*

**Kirish.** Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir muhim vazifalar va ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish, ayniqsa hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobjiy tajribalaridan foydalanish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Ana shunday muhim masalalarni yechishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-sonli Farmonining qabul qilinishi ayni muddaodir. Mazkur Farmonda inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. Jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiropi yetarlicha ta'minlanmaganligini, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir

shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligi aytib o'tilgan.

O'tgan davr mobaynida davlatimiz tomonidan yurtimiz aholisining, ayniqsa, katta hayotostonasiga endi qadam qo'yayotgan yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ularning huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, ularning ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni keng yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish masalalari davlatning muhim maqsadlari qatoridan joy oldi. Ma'lumki, huquqiy ong huquq va qonunchilikka oid odamlarning tasavvurlari, ularning his-tuyg'ulari, amaliy tajribalar ta'sirida paydo bo'lgan huquqqa nisbatan munosabatini ifodalaydigan tushuncha bo'lsa, huquqiy madaniyat esa kishi umumiyligi madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, unga ega bo'lish uchun qonunga rioya etish, qonun asosida ish tutish lozimligini bildiradi. Bunda huquqiy madaniyatlilik nafaqat o'z haq-huquqlarini bilish, uni anglab yetish, balki el-yurtga fidoyilik, halollik, o'zgalar huquqini hurmat qilish, Vatanga sadoqat va ezgu ishlarni hayotiy tamoyilga aylantirib olinganligini ham bildiradi.

Jahon ilm-fanida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalgalash oshirilgan va hozirgi kunda ham bunday izlanishlar davom ettirilmoqda. Bunday tadqiqot ishlari rus olimlari S.N.Aleksandrova, S.S.Alekseev, M.I.Baru, A.M.Vasilev, N.D.Golev, I.I.Gryazin, T.V.Gubaeva, V.E.Jerebkin, D.A.Kerimov, O.E.Leyst, V.P.Malakov, V.S.Nersesyan; A.S.Pigolkiш Ye.A.Pryashnikov, T.N.Radko, V.M.Saviskiy, Yu.A.Tixomirov, N.I.Xabibulina, A.F.Cherdansev; xorijiy olimlar R.Arntsa, J.L.Berjelya, R. Dvorkina, R. Ieringa, D. Loyda, E. Xirsha va boshqalar tomonidan samarali olib borilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov, M.G.Davletshin, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, B.Jo'raev, B.M.Umarov, Z.T.Nishonova, G'.A.Normurodov,

N.G'.Kamilova, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham yoshlarda huquqiy tushunchalar shakllanishining xususiyatlari, ularning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini oshirish yo'llari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari.** Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida Qarshi davlat universiteti va Samarcand davlat universiteti talabalarini respondent sifatida tanlab oldik. Jami respondentlar soni 309 nafarni tashkil etadi. Tadqiqot ishida o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir qator metodikalar, jumladan, L.S.Mozjakovaning "Huquqiy savodxonlikni o'rganish", D.S.Beznosovning "Huquqga munosabat" kabi metodikalari va empirik ma'lumotlarning normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirishda Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalandik.

O'spirinlik davri hayotning eng jo'shqin va mas'uliyatli davri hisoblanib, ular jamiyatning o'sib kelayotgan eng faol a'zolari sifatida oliy o'quv yurtlarida tahsil olish bilan birga xalq xo'jaligining turli sohalarida ham faoliyat olib boradilar. Faoliyat jarayonida turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy masalalarga duch keladi. Mavjud hayotiy muammolarning yechimini topishda, shaxsning haq-huquqlari va manfatlari to'qnash kelishida ma'lum darajada fuqarolik huquqlarini himoyalashga zarurat tug'iladi. Ushbu holatni inobatga olgan holda o'spirinlarning huquqiy savodxonligi, ularning istiqbolda o'z xatti-harakatlarining qonun va huquqiy-me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan tadqiqot olib borildi. Buning uchun o'spirinlarning yoshiga xos xususiyatlarida huquqiy savodxonlikni o'rni bir qator psixologik jihatlarni inobatg olgan holda o'rganildi. Quyida o'spirinlarning huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyojlari o'rganilganligi natijalari aks etgan (1-jadval).

### 1-jadval

**O'spirinlarning huquqiy savodxonlikni tushunish to'g'risidagi munosabatlari**

Baholash mezonlari	O'spirinlar miqdori (nafar)	munosabat	Foiz
Davlatning huquqiy asoslarini bilish	69		22,33
Huquq turlari va me'yorlarini bilish	57		18,45
Qonun asosida insonlarning munosabatlarini tartibga solish	13		4,21

Insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy me'yoriy hujjatlarni bilish	100	32,36
Shaxsning qonun asosida o'zini tartibga solishini bilish	43	13,91
Huquqshunoslik fanini o'qiganligi	27	8,74

Bunga ko'ra o'spirinlarning huquqiy savodxonligi to'g'risidagi munosabatlarining umumiylar xarakteristikasini taqdim etildi. O'spirinlar tomonidan baholash mezonlaridan bittasi huquqiy savodxonlikning to'liq ma'nosini ifodalaydi mazmunida taqdim etildi. Huquqiy savodxonlik tushunchasi to'g'risidagi o'spirinlarning munosabatlari oltita mezon bo'yicha baholandi. Mezonlar bo'yicha o'spirinlarning munosabatlari orasida "insonning kundalik turmushi va hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan huquqiy me'yoriy hujjatlarni bilish" huquqiy savodxonlikning asosiyligi belgilovchisi sifatida e'tirof etilgan (100 nafar (32,36%)). Bu esa o'spirinlar huquqiy savodxonlikning kundalik turmush va faoliyatini belgilangan me'yorlarda amalga oshirilishini tavsiflash nuqtai nazardan izohlangan. Huquqiy savodxonlikni tavsiflovchi ustuvor izoh sifatida "davlatning huquqiy asoslari bilish" e'tirof etilgan (69 nafar (22,33 %)). Aslida davlatning huquqiy asoslari me'yoriy - huquqiy asoslarning barchasi uchun mas'ul va uning ta'minotchisi hisoblanadi. Ushbu o'rinda huquqiy savodxonlikning ta'minlanishini hokimiyat bilan fuqaro munosabatlarini to'laqonli tavsifini ifoda etgan holatlar belgilashi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, o'spirinlar huquqiy savodxonlik deganda "huquq turlari va me'yorlarni bilish" (57 nafar (18,45%)), "shaxsning qonun asosida o'zini tartibga solishini bilish" degan javob berilgan (43 nafar (13,91%)), "huquqshunoslik fanini o'qiganlik" (27 nafar (8,74%)) va "qonun asosida insonlarning munosabatlarini tartibga solish" (13 nafar (4,21%)) tarzda munosabat bildirganlar. O'spirinlarning huquqiy savodxonlik tushunchasiga bildirgan munosabatlari o'z navbatida respondentlarning ushbu yo'naliishdagi da'vogarlik darajasini ham belgilab beradi.

O'spirinlarning huquqiy savodxonlik darajasini baholashga xizmat qiluvchi komponentlardan biri "Huquqiy savodxonlikni shaxsni jamiyat va fuqarolik manfatlarini anglashiga imkon beruvchi holatlari" yuzasidan empirik tahlil natijalari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

**Huquqiy savodxonlikni shaxsning jamiyat va fuqarolik manfatlarini anglashiga imkon beruvchi holatlari**

Baholash mezonlari	O'spirinlar munosabat miqdori (nafar)	Foiz
Fuqarolik ongi	55	17,8
Huquqiy bilimlar	135	43,69
O'zining haq-huquqini bilishi	93	30,1
Me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi	12	3,88
Hayotiy muammolar bilan bog'liq huquqiy yordamga zarurat sezishi	14	4,53

Huquqiy savodxonlikni shaxsning jamiyat va fuqarolik manfatlarini anglashiga imkon beruvchi holatlari o'spirinlar tomonidan 135 nafari (43,69 %) "huquqiy bilimlar"ni etirof etishgan. Ular jamiyat va fuqarolik manfatlarining anglashda huquqiy bilimlarni ahamiyati ijobjiy tarzda e'tirof etilmoqda. Bundan ko'rindiki, jamiyat rivojlanishi va o'z navbati fuqarolik faoliyatiga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi o'spirinlar tomonidan huquqiy bilimlarni o'zlashtirish muhimligini anglashgan. Shuningdek, o'spirinlar tomonidan "o'zining haq-huquqini bilishi"ni baholash mezonni bo'yicha 93 nafar (30,1%) o'spirinlar ijobjiy baholadilar. O'spirinlar hayotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan ontogenetik taraqqiyotning o'ziga xos bosqichidir. Ularning kasb tanlashi, hayot yo'lini belgilashi va kelajakda turli shaxsiy faoliyatni amalga oshirishida o'zining haq-huquqlari ko'pligini tushunganliklarini tasdiqlamoqda.

O'spirinlar "fuqarolik ongi"ga ega bo'lishini ham yuqori baholashga moyil bo'lganlar 55 nafar (17,8%)ni tashkil etdi. Bundan ko'rindiki, o'spirinlarda fuqaro sifatida fuqarolik, jamiyat rivojlanish istiqbollari, uning taqdiriga aloqadorligini anglash, ijtimoiy xulq-atvorning umumiy yo'nalishini tartibga soluvchi yuqori darajadagi dispozitsiyalarni tashkil etuvchi g'oyalar ham mavjduligidan dalolat bermoqda. O'spirinlar orasida fuqarolik va jamiyat manfatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhimligi haqida mulohazalaydiganlari ham mavjudligi ahamiyatlidir.

Ammo o'spirinlardan "hayotiy muammolar bilan bog'liq huquqiy yordamga zarurat sezishi" huquqiy savodxonlikni muhim jihatni sifatida e'tirof etganlar (14 nafar (4,53 %)). Agar huquqiy savodxonlik borasida hayotiy muammolar bilan bog'liq huquqiy yordamga zarurat sezishning o'ziyoq shaxsning huquqiy bilimlarga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi. Ko'p hollarda insonlar hayotiy muammolari borasida huquqiy yordamga zarurat sezgan sharoitlarida huquqiy savodxonlik zarurligini anglaydilar. Ushbu bandni ustuvor baholagan o'spirinlarning munosabatlarini muhim deb hisoblash mumkin.

O'spirinlar orasida huquqiy savodxonlikning bir jihatni "me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi"dan iborat deb baholaganlar 12 nafar (3,88%)ni tashkil etdi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar deganda normativ hujjatlar to'g'risidagi Qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalarini sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytildi. Ko'p hollarda oddiy fuqarolar me'yoriy-huquqiy hujjutlar nima uchun kerakligiga e'tibor qaratmaydilar. Shu bois, ta'lim maussasalarida huquqiy ta'lim fanlarini o'qitilishining asosiy sharti ham ta'lim oluvchilarda huquqiy savodxonlik hamda u bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlar haqidagi dastlabki bilimlar shakllantirilishi kam sonli o'spirinlar tomonidan anglab yetilganligi bezizga emas.

Tadqiqot ishida o'spirinlar huquqiy ongi bilan savodxonligi o'rtasidagi ta'sirni aniqlashga e'tibor qaratildi va tahlil natijalari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

### **3-jadval**

#### **O'spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllari o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rtsakichlari (quyi daraja)**

Shkalalar	Huquqiy savodxonlik jihatlari		
	Kognitiv	Xulqiy	Emotsional-baholash
Huquqiy realizm	0,174	0,219	0,172
Huquqiy skeptitsizm	-0,574	-0,627	0,437
Huquqiy konformizm	0,608	0,621	0,043
Huquqiy sinizm	0,886**	0,855*	-0,105
Huquqiy fetishizm	0,565	0,656	-0,128
Huquqiy infantilizm	-0,788*	0,574	-0,681*
Huquqiy idealizm	0,916**	0,667*	-0,256
Huquqiy nigelizm	-0,944**	-0,724*	0,019

Izoh: \*- r<0,05, \*\* r<0,01.

Tadqiqotda huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllari o'rtasidagi ichki aloqadorlik masalasini o'rganishga e'tibor qaratildi. Buning uchun o'spirinlarning huquqiy savodxonlik jihatlari bilan huquqiy ong shakllarining quyi, o'rta va yuqori darajali ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi.

Huquqiy savodxonlikning kognitiv, xulqiy va emotsiyal-baholash jihatlari quyi ko'rsatkichli o'spirinlarning huquqiy ong shakllari o'rtasidagi munosabatda huquqiy savodxonlikning kognitiv ( $r=0,886$ ;  $r<0,01$ ) va xulqiy jihatlarining susayishi ( $r=0,855$ ;  $r<0,05$ )ni tushungan holda qonun me'yorlarini buzish, o'zining

kuchi va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi, o'zining irodasi orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish xatti-harakati kuzatiladi.

O'spirinlarda huquqiy infantalizm bilan savodxonlikning kognitiv ( $r=-0,788$ ;  $r<0,05$ ) va emotsiyonal-baholash ( $r=-0,681$ ;  $r<0,05$ ) jihatlari o'rtasidagi kuchli salbiy korrelyatsiya oqibatida ularning hayotda huquqni bilmasdan, ularga e'tibor qaratmasdan ham xotirjam yashash mumkin degan xulosaga olib kelmoqda.

Shuningdek, ushbu toifa o'spirinlarda savodxonlikning kognitiv ( $r=0,916$ ;  $r<0,01$ ) bilan emotsiyonal-baholash ( $r=0,667$ ;  $r<0,05$ ) jihatlari o'rtasidagi kuchli salbiy korrelyatsiya qonunning jamiyatdagi rolini mutlaqo salbiy ma'noda idellashtirishga olib kelishi, qonun ustuvorligini salbiy pasaytirib yuborishlarini ifodalamoqda.

O'z navbatida korrelyatsiya tahlilning navbatdagi ko'rsatkichlarida o'spirinlarning mulohazalarida, huquqiy nigelizmning ortib ketishi hisobida huquqning kognitiv ( $r=-0,944$ ;  $r<0,01$ ) va xulqiy ( $r=0,-724$ ;  $r<0,05$ ) komponentlarida susayish vujudga kelishi natijasida huquq va uning jamiyatning boshqarishdagi qobiliyatiga bo'lgan ijtimoiy qimmatini inobatga olmaslik, ahamiyatini pasaytirish aniqlandi. Bu esa o'spirinlar huquqiy ongida nigelizmga xos xususiyatlar kuzatilishini ko'rsatmoqda. Bu huquqiy savodxonlikning kognitiv, xulqiy va emotsiyonal-baholash jihatlari bo'yicha yetarlicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'limgan o'spirinlarga xoslikda kuzatilar ekan.

**Xulosa.** O'spirinlar huquqiy savodxonligida huquqiy ong shakllarining o'ziga xos o'rni bor ekanligi kuzatildi. Ta'lim muassasasi xususiyati va faoliyat yo'nalishiga ko'ra o'spirinlarda huquqiy ong shakllarining yoshga xos ko'rsatkichlarida ham OTM talabalari huquqiy realizm shkalasi bo'yicha boshqa ta'lim muassasada tahsil olayotgan o'spirinlarga nisbatan huquqqa nisbatan ijobiy munosabatga egaliklari, huquqni me'yor darajasida tushunishlari va qonunchilikka doir bilimga egaliklari ustunroq, jamiyatning huquqiy tizimiga bag'rikenglik, huquqni jamiyatdagi xulq-atvorni asosiy tartibga soluvchi sifatida baholashga xayrixohdirlar. Huquqiy savodxonlikning kognitiv, xulqiy va emotsiyonal-baholash jihatlari quyi ko'rsatkichli o'spirinlarning huquqiy ong shakllari o'rtasidagi munosabatda huquqiy savodxonlikning kognitiv va xulqiy jihatlarining susayishini tushungan holda qonun me'yorlarini buzish, o'zining kuchi va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi, o'zining irodasi orqali boshqalarga ta'sir o'tkazish xatti-harakati kuzatiladi.

O'spirinlarning munosabatiga ko'ra huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj shaxsning har doim huquqiy bilimlar olishga va boyitib borishiga zaruratni hamda huquqiy masalalarga duch kelgandagina bilimlarga zaruratni vujudga keltirilgan.

Ularning ko'pchilik qismi huquqning ayrim jihatlarini bilishlari, bir qatorlari esa huquq bo'yicha biror bir ma'lumotga ega emasliklari kuzatildi. O'spirinlarda huquqiy savodxonligiga erishishishning psixologik tahlili ular orasida ma'lum savodxonlikni oshirishga xizmat qiluvchi manbalardan foydalanishlariga ko'rahuquqiy manbalarni tushunmaydigan, foydalana olmaydigan va huquqiy manbalardan foydalana oladiganlar toifasiga ajratildi. O'spirinlarning huquqiy savodxonligi yo'nalishida huquqiy ma'lumotga, huquqiy qadriyatga, huquqiy faollikka, o'zini o'zi huquqiy nazorat qilish xususiyatlari egadirlar, ammo ularda huquqiy ijodkorlik yetishmaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Даудов М.Г. Формирование правовой компетентности студентов педагогического ВУЗа: Автореферат диссерт... кандидат педагог. Наук .- Махачкала.2017.-24 с.
2. Джаббаров В.Х. Формирование гражданской грамотности студентов в процессе обучения в колледже: Автор. дис. -Самара,-2012.-27 с.
3. Джураев Б. Психологические особенности формирования юридической понятий у учащихся. НАУ Национальная ассоциация ученых, VII Международная научно-практическая конференция: «Отечественная наука в эпоху изменений: постулаты прошлого и теории нового времени» часть 8, 2(7) Екатеринбург-2015, 103-104с.
4. Мамкин.А.Ю. Формирование правовой культуры обучающихся в образовательной организации среднего профессионального образования: Автореферат диссерт... кандидат педагог. Наук.-Белгород.2019.-25 с
5. Mamatov X.T. Huquqiy madaniyat va o'zbekistonda Fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. Yuridik. f. d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. - Toshkent.2011.-42 b.
6. Набиева Т.В. Формирование гражданской грамотности старшеклассников: Автореферат диссерт... кандидат педагог. ИПК БГПУ.- Уфа.2005.-28 с.
6. O.S.Qodirov. Umumiyl psixologiya // O'quv qo'llanma. - Samarqand, 2022.-250 b.
7. O.S.Qodirov, Sh.N.Xotamov. Ijtimoiy psixologiya //Darslik. - Samarqand, 2023.-346 b.

8. Safarovich Q. O. et al. O'quvchilar xulq-atvori profilaktikasida maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir modeli //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 382-386.

9. Safarovich Q. O. et al. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning xulq-atvori bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish masalalari //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 367-371.

10. Safarovich Q. O. et al. TEENAGER CHILD PSYCHOLOGY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – C. 454-462.